

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Saidov Jasurbek Latipbaevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya - Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi bank faoliyatida risklarni boshqarishning huquqiy asoslari bayon etilgan. Shuningdek, kredit tavakkalchiligi bo‘yicha risk-appetitga qo‘yilgan talablar va muammoli aktivlarni boshqarish jarayonining bosqichlari ko‘rib chiqilgan. Bankda tavakkalchiliklarni boshqarish madaniyatini ta‘minlash bo‘yicha muallif tomonidan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bank, risklarni boshqarish tizimi, stress-test, kredit, baholash, tavakkalchiliklarni boshqarish model.


KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020 - 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi qarori asosida, 2023 yil 18 aprelda №3427 “Banklar va banklar guruhlarining risklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risidagi nizomi” tasdiqlandi. Bunga asosan, bankda risklarni boshqarish tizimi quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim¹¹: risklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasini; risklarni boshqarish madaniyatini; risklarni boshqarish bo‘yicha bankning ichki jarayonlari,

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 18.04.2023 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3427.

hujjatlari hamda vositalarini; risklarni boshqarishga va hisobotlarni tayyorlashga mo‘ljallangan axborot tizimini.


Bankda risklarni boshqarish tizimida manfaatlar to‘qnashuvini inobatga olgan holda bankning barcha tarkibiy bo‘linmalari va xodimlari o‘rtasida risklarni boshqarish bo‘yicha vazifalar, majburiyatlar va vakolatlarining aniq taqsimlanishini, mazkur Nizomning 4-bandiga muvofiq himoyaning uch chizig‘i tizimi shakllantirilishi orqali risklarni boshqarishga mas‘ul tarkibiy bo‘linmalar va ichki nazoratga mas‘ul tarkibiy bo‘linmaning bank operasion faoliyatidan ajratilishini, bank faoliyatining barcha yo‘nalishlari va tashkiliy tuzilmasida kamida sezilarli risklarni boshqarishning qamrab olinishini, sezilarli risklar xolisona va o‘z vaqtida aniqlanishi, baholanishi hamda monitoring qilinishini, ular bo‘yicha hisobot tayyorlanishini, ularning nazorat qilinishi va kamaytirilishini, bank xizmatlari uchun o‘rnatilgan narx mazkur xizmatlar bilan bog‘liq risklar va xarajatlarni inobatga olgan holda shakllantirilishini hamda risklarni boshqarish jarayonlarining to‘liqligini va hujjatlashtirilishini ta‘minlashi lozim. Risklarni boshqarish tizimi himoyaning uch chizig‘i metodiga asoslanishi hamda ushbu metodga asosan risklarni boshqarish bo‘yicha majburiyatlar bankning quyidagi tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida taqsimlanishi lozim.



1-rasm. Risklarni boshqarish tizimi himoyaning uch chizig‘i usuli¹²


¹² O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 18.04.2023 yilda 3427 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

Bank banklar guruhining asosiy banki bo'lgan taqdirda, banklar guruhining konsolidatsiyalashgan moliyaviy va nazoratga oid hisobotlarini tuzishi hamda ushbu hisobotlar asosida banklar guruhida yuzaga kelgan risklarni boshqarib borishi lozim. Kuzatuv kengashi risklarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish uchun mazkur ichki hujjatlar tasdiqlashi lozim¹³.



2-rasm. Risklarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish uchun tasdiqlashi lozim bo'lgan hujjatlar¹⁴

Bankning stress-testdan o'tkazish tartibida quyidagilar belgilanishi va har chorakda kamida bir marotaba o'tkazilishi lozim.



3-rasm. Bankning stress-testdan o'tkazish tartibi¹⁵

¹³ O'sha manba.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 18.04.2023 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3427.

¹⁵ O'sha manba.

Bank kredit riskini stress-testdan o'tkazishda quyidagilarni inobatga olishi lozim, ya'ni mamlakatdagi umumiy iqtisodiy holat, shu jumladan mamlakat iqtisodiy ko'rsatkichlarining pasayishi, mamlakat darajasida va iqtisodiyot sohalari kesimida iqtisodiy o'sishning sekinlashuvini hamda bankning o'ziga xos ichki omillari, shu jumladan bankning kreditlash bilan bog'liq faoliyati xususiyatlari va kredit portfeli tarkibini.

Bank likvidlilik tavakkalchiligini stress-testdan o'tkazishda quyidagi ssenariylardan foydalanishi lozim, bunda mamlakat iqtisodiyotining barqaror holatida bankda stress vaziyatning yuzaga kelishi bilan bog'liq ssenariy, shu jumladan aktivlar sifatining yomonlashuvi, majburiyatlarning to'planishining (konsentratsiyasi) o'sishi, yuqori likvidli aktivlarning sezilarli darajada kamayishi, bank kredit reytingining pasaytirilishi, bankka axborot hujumi, bankning aksiyadorlari bilan bog'liq muammolar va mamlakatning bank tizimidagi inqiroz natijasida bankda stress vaziyatning yuzaga kelishi bilan bog'liq ssenariy.

**Bankda
tavakkalchilikla
rni boshqarish
madaniyatini
ta'minlash
maqsadida**

xodimlarga tavakkalchiliklarni boshqarishda ularning o'rni haqida ma'lumot berilishi, bunda ularning bank tomonidan o'rnatilgan risk-appetit va tavakkalchilik chegaralariga rioya etilishiga mas'ul ekanliklari to'g'risida xabardor qilinishi;

bankning korporativ qadriyatlari, malaka standartlari, odob-axloq kodeksi va boshqa tegishli ichki hujjatlari xodimlarning e'tiboriga doimiy tarzda etkazilishi hamda bu boradagi nazoratning o'rnatilganligi;

nomaqbul xatti-harakat va (yoki) qoidabuzarlikni amalga oshirganlik uchun intizomiy choralari qo'llanilishi haqida bankning rahbariyati va xodimlari xabardor qilinishi va mazkur masala yuzasidan nazorat amalga oshirilishi;

xodimlar sezilarli tavakkalchiliklar haqida hamda mazkur tavakkalchiliklarni boshqarishda ularning vazifalari to'g'risida bilimga ega bo'lishi uchun seminar va treninglar o'tkazib borilishi;

bankda barcha uchun doimiy ravishda ochiq bo'lgan ichki va tashqi muloqot tizimlarining tashkil etilishi.

**4-rasm. Bankda tavakkalchiliklarni boshqarish madaniyatini
ta'minlash chora-tadbirlari¹⁶**

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 18.04.2023 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3427.

TAHLIL VA NATIJALAR MUXOKAMASI

Bank bozor tavakkalchiligini stress-testdan o'tkazishda quyidagi farazlardan foydalanishi mumkin, bunda esa ochiq valyuta pozitsiyasidagi xorijiy valyutalar kurslarining o'zgarishi, moliyaviy instrumyentlarning bozor narxi o'zgarishi, bozordagi o'zgaruvchan foiz stavkalarining turli darajalarda o'zgarishi, bozordagi foiz stavkalarini o'zgarishi natijasida foiz stavkalariga ta'sirchan moliyaviy instrumentlar bo'yicha daromadlarning o'zgarishi, bankning daromadlilik ko'rsatkichlarining o'zgarishi, hamda bank tomonidan jalb qilingan va joylashtirilgan mablag'lar bo'yicha foiz stavkalari o'rtasidagi tafovutning o'zgarishi. Bank stress-test natijalari asosida bir yilda bir marotaba favqulodda bankni qo'shimcha moliyalashtirish rejasini ishlab chiqishi lozim. Kuzatuv kengashi bankda risklarni boshqarish madaniyatining shakllanishiga mas'ul hisoblanadi, bunda risklarni boshqarish madaniyatini ta'minlash maqsadida quyidagi choralar ko'rilishi lozim hisoblanadi. Shu bilan birga kuzatuv kengashi risk bo'linmasi va komplayens tavakkalchiligini boshqarishga mas'ul tarkibiy bo'linmani tashkil etishi hamda ularning mustaqilligini ta'minlashi kerak.



5-rasm. Komplayens tavakkalchiligini boshqarish uchun mas'ul tarkibiy bo'linma vazifalari¹⁷

¹⁷ Normativ xujjatlar asosida tayyorlanagan.

Bankda kredit tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi kredit tavakkalchiligini boshqarish tizimi joriy etilishi lozim. Kredit tavakkalchiligini boshqarish tizimi quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

kredit tavakkalchiligi bo‘yicha o‘rnatilgan risk-appetitni;
kredit siyosati hamda kredit tavakkalchiligini boshqarish jarayonlarini;
kredit ajratishga doir qarorlar qabul qilish jarayonini;
aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish jarayonini;
muammoli aktivlarni aniqlash va ular bilan ishlash tartibini;
kredit tavakkalchiligini stress-testdan o‘tkazish tartibini;
kapital monandligini baholash bo‘yicha ichki jarayonlarni (ICAAP) (joriy qilingan bo‘lsa);

kredit tavakkalchiligi bo‘yicha hisobot berish jarayonini.

Kredit tavakkalchiligi bo‘yicha risk-appetitga qo‘yilgan talablar quydagicha, ya’ni bankning risk-appetit bayonotida bankning strategik maqsadlariga va biznes-reja ko‘rsatkichlariga erishishda qabul qilishga tayyor bo‘lgan jami kredit risklarini nazarda tutuvchi bankning kredit tavakkalchiligi bo‘yicha risk-appetiti belgilanishi kerak.

bankning jami aktivlarida kreditlar ulushining eng yuqori miqdori;

kredit portfeli yillik o‘rishining eng yuqori darajasi (barcha valyutalar va har bir valyuta kesimida);

bir qarz oluvchi, o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun riskning bank birinchi darajali kapitaliga nisbatining eng ko‘p miqdori;

kredit mahsuloti turlarining bank jami kredit portfelidagi ulushining eng yuqori miqdori;

muammoli aktivlarning (kreditlarning) bank jami kredit portfeli va kredit mahsuloti turlari kesimidagi ulushining eng yuqori miqdori.


6-rasm. Kredit tavakkalchiligi bo‘yicha risk-appetitning miqdoriy ko‘rsatkichlarni¹⁸

Shuni xam aytish lozimki, kredit tavakkalchiligi tasdiqlangan risk-appetit chegaralariga yaqinlashganda yoki mazkur chegaralar buzilganda, risk bo‘linmasi

¹⁸Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

bir ish kunidan kechiktirmay kuzatuv kengashi, bank boshqaruvi va risklarni boshqarish qo‘mitasini (agar tashkil etilgan bo‘lsa) xabardor qilishi hamda besh ish kuni ichida kuzatuv kengashiga tegishli tuzatuvchi choralarni taklif qilishi lozim.

Kredit tavakkalchiligini boshqarish maqsadida bank boshqaruvi tomonidan bankning ichki tartiblari ishlab chiqilishi hamda ushbu tartiblarning amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lishi ko‘rib borilishi kerak. Bank kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilishini ta‘minlash hamda muammolarni dastlabki bosqichda aniqlash maqsadida kreditlarni yakka tartibda va portfel kesimida monitoring qilish tizimini ishlab chiqishi hamda amaliyotga joriy etishi kerak. Bankda muammoli aktivlarni boshqarish jarayoni tashkil etilishi lozim.



7-rasm. Muammoli aktivlarni boshqarish jarayonining bosqichlari¹⁹

Kredit risklarini boshqarishga oid hisobotlarning shakli, davriyligi va hajmi kuzatuv kengashi yoki bank boshqaruvi tomonidan belgilanadi. Kredit tavakkalchiligiga oid hisobotlar quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim:

kredit portfeli to‘planishining darajasini (konsentratsiyasini);

kredit portfelining hajmi va dinamikasi, shu jumladan shartlari qayta ko‘rib chiqilgan, muammoli va hisobdan chiqarilgan aktivlar hajmi dinamikasini;

kredit tavakkalchiligi darajasi, shu jumladan kredit tavakkalchiligi bo‘yicha o‘rnatilgan chegaralarga yaqinlashish yoki mazkur chegaralarning buzilishi

¹⁹ Ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

holatlarini;

o‘zaro aloqador qarz oluvchilar uchun risk darajasi va dinamikasini;
ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun shakllantirilgan zaxiralar darajasi va dinamikasini;

muammoli aktivlar bo‘yicha qilinayotgan ishlar holatini;
kredit siyosatidan chetlashgan holda ajratilgan kreditlarning ulushi va dinamikasini;

risklarni inobatga olgan holda kredit portfeli darajasi va dinamikasini;

kredit tavakkalchiligi bo‘yicha stress-test o‘tkazish natijalarini.

Likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish va monitoring qilishda quyidagi talablar hisobga olinishi lozim:

Markaziy bank tomonidan belgilangan likvidlilik koeffitsiyentlari va majburiy zaxiralash talablari;

yirik kontragentlar (kreditorlar va omonatchilar) oldida majburiyatlarning to‘planishi (konsentratsiyasi);

bank tomonidan mustaqil belgilangan vaqt oraliqlari va asosiy valyutalar kesimida aktiv va majburiyatlarning (pul oqimlarining) kutilayotgan va (yoki) shartnomaviy so‘ndirilish muddatlaridagi nomutanosibliklar (nomutanosibliklar tahlili);

yuqori likvidli aktivlar toifasiga kiritilmagan, ammo stress-test ssenariylarida ikkilamchi bozordan qo‘shimcha moliyalashtirishni jalb qilish uchun garov tariqasida taqdim etish mumkin bo‘lgan bank tasarrufidagi aktivlarning hajmi, valyutasi va asosiy xususiyatlari;

bankning mavjud likvidlilik tavakkalchiligi va boshqa turdagi risklar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.

Bankda bozor tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi bozor tavakkalchiligini boshqarish tizimi joriy qilinishi lozim. Bozor tavakkalchiligini boshqarishning samarali tizimi quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

bozor tavakkalchiligi bo'yicha risk-appetitni;
bozor tavakkalchiligini boshqarish siyosati va tartiblarini;
bozor tavakkalchiligini baholash va monitoring qilish vositalarini;
bozor tavakkalchiligi bo'yicha stress-test o'tkazish tartibini;
bozor tavakkalchiligi bo'yicha hisobotlarni.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor tavakkalchiligi sezilarli darajada o'sganda, shu jumladan tasdiqlangan risk-appetit chegaralariga yaqinlashganda yoki mazkur chegaralar buzilganda, risk bo'linmasi bir ish kunidan kechiktirmay kuzatuv kengashi va bank boshqaruvini xabardor qilishi va besh ish kuni ichida tegishli tuzatuvchi choralarni taklif qilishi lozim. Bozor tavakkalchiligining sezilarli darajada o'sishi bankning ichki hujjatlarida belgilanishi lozim.

Bankda **operasion riskni** aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi operasion risklarni boshqarish tizimi joriy qilinishi lozim. Operasion risk quyidagilar bilan bog'liq holatlarda yuzaga keladi: ichki firibgarlik; tashqi firibgarlik; xodimlarni boshqarish va mehnat muhofazasi; bankning mijozlari, mahsulotlari va ishbilarmonlik normalari; bank faoliyatidagi nobarqarorlik va ichki tizimlaridagi muammolar; to'lovlarni amalga oshirish va to'lov topshiriqlarini taqdim etishdagi muammolar.

To'lovlarni amalga oshirish va to'lov topshiriqlarini taqdim etish bilan bog'liq risklar quyidagi holatlarda yuzaga kelishi mumkin, ya'ni to'lov operatsiyalari monitoringini amalga oshirish va ular bo'yicha hisobotlar tayyorlashdagi kamchiliklar; mijozlarni jalb qilish va hujjatlar yuritishdagi xatoliklar; mijozlar hisobvaraqlarini nomaqbul tarzda boshqarish, savdoga oid sheriklar va yetkazib beruvchilar bilan bog'liq muammolar; ma'lumotlarni kiritish va saqlashdagi, buxgalteriya hisobini yuritishdagi xatoliklar; qarz oluvchini o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhiga mansubligini aniqlash bilan bog'liq kamchiliklar; to'lov hujjatlarini yuborish bilan bog'liq muammolar; mijozlarga oid hujjatlarning to'liq emasligi, Markaziy bank va qonunchilikka muvofiq boshqa organlarga

hisobotlarning taqdim etilmasligi; mijozlarning hisobvaraqlaridan ruxsatsiz foydalanilishi.

Operasion riskni boshqarishning samarali tizimi quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim, xususan, operasion risk bo‘yicha bankning risk-appetitini; operasion risklarni boshqarish siyosati va ichki tartiblarini; operasion riskni baholash va monitoring qilish vositalarini; operasion risklar bo‘yicha stress-test o‘tkazish tartibini; operasion risklar bo‘yicha hisobotni.

Bank **operasion risklarni boshqarish** siyosati va tegishli ichki tartiblar doirasida operasion risklarni boshqarishi lozim. Operasion risklarni boshqarish siyosati quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim, ya’ni operasion risklarni boshqarish tizimining tashkiliy tuzilmasi, jumladan tegishli tarkibiy bo‘linmalarining vazifalari, vakolatlari, majburiyatlari taqsimoti hamda o‘zaro ishlash tartibini; operasion risk chegaralarini belgilash tartibini; operasion risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish, kamaytirish va operasion risk haqida hisobot berishga qo‘yiladigan talablarni; operasion risk holatlarini aniqlash mezonlarini; operasion riskni stress-testdan o‘tkazish tartibini; operasion risk bo‘yicha tayyorlanadigan hisobot shakllari, ularni taqdim etish tartibi va davriyligini.

Operasion riskni aniqlash va baholash uchun bank quyidagi vositalardan foydalanishi lozim, xususan, ichki operasion risk holatlari bazasini yaratish, yuritish va undagi mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish; ichki audit xizmati va tashqi auditor tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlar natijalarini tahlil qilish; riskning asosiy ko‘rsatkichlari (Key Risk Indicators).

Operasion riskning asosiy ko‘rsatkichlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: xodimlar qo‘nimsizligi; bank tomonidan to‘langan jarimalar miqdorining bankning yalpi daromadlariga nisbati; ajratilishida firibgarlik alomatlari mavjud bo‘lgan kreditlarning barcha ajratilgan kreditlardagi ulushi; texnik, texnologik nosozliklar yoki elektr uzilishi natijasida cheklangan tartibda ishlovchi bank tizimining faoliyati davomiyligi; qonunchilik hujjatlariga zid ravishda tuzilganligi aniqlangan bitimlarning barcha bitimlardagi ulushini. Ichki operasion risk holatlari

bo'yicha bankning ma'lumotlar bazasiga quyidagilar kiritilishi lozim: holat sodir bo'lgan, aniqlangan va ro'yxatga olingan sana; holatni yuzaga keltirgan xodim; holatni aniqlagan va o'rganish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma; holatning tavsifi va sodir bo'lish sabablari; holat iqtisodiy ta'sirining milliy valyutadagi miqdori, turi, jumladan zararlar, kompensatsiya to'lovi, ehtimoliy zararlar; holat bilan bog'liq bo'lgan risk turi, jumladan kredit tavakkalchiligi, bozor tavakkalchiligi; holatning ochiqqligi yoki yopiqqligi.

Operasion risk sezilarli darajada o'sganda, shu jumladan tasdiqlangan risk-appetit chegaralariga yaqinlashganda yoki mazkur chegaralar buzilganda, risk bo'linmasi bir ish kunidan kechiktirmay kuzatuv kengashi va bank boshqaruvini xabardor qilishi va besh ish kuni ichida tegishli tuzatuvchi choralarni taklif qilishi lozim. Operasion riskning sezilarli darajada o'sishi bankning ichki hujjatlarida belgilanishi lozim.

Bank komplayens tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va kamaytirishga xizmat qiluvchi komplayens tavakkalchiligini boshqarish tizimini joriy qilishi lozim. Komplayens tavakkalchiligini boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim, xususan, komplayens tavakkalchiligini boshqarish siyosati va tartiblarini; komplayens tavakkalchiligi bo'yicha hisobotni.

Komplayens tavakkalchiligini aniqlash va baholash uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalanish lozim: bankdagi nomaqbul xatti-harakatlar to'g'risida xodimlardan olingan ma'lumot; ichki operasion risk holatlari bazasi; mijozlarning shikoyatlari; ichki audit xizmati va tashqi auditorlar hisobotlari; Markaziy bank va boshqa tegishli organlardan olingan ma'lumotlar; komplayens tavakkalchiligini boshqarish uchun mas'ul tarkibiy bo'linma xodimlari tomonidan boshqa manbalardan olingan, jumladan o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari bo'yicha aniqlangan ma'lumotlar. Komplayens tavakkalchiligi yuzaga kelganda, shu jumladan qonunchilik talablari buzilganda, komplayens tavakkalchiligini boshqarishga mas'ul tarkibiy bo'linma kuzatuv kengashi va bank boshqaruvini o'z vaqtida xabardor qilishi va tegishli tuzatuvchi choralarni taklif qilishi lozim. Bu

albatta O‘zbekiston Respublikasidagi qo‘llaniladigan normativ hujjat bo‘lib, mazkur bank faoliyatida risklarni boshqarishning huquqiy asoslari sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020 - 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi qarori asosida 2023 yil 18 aprelda №3427 “Banklar va banklar guruhlarining risklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risidagi nizomi”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 18.04.2023 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3427.